

---

## Qalblarga shodmonlik ulashgan tadbir

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Farg'ona viloyati bo'limi tashabbusi bilan Farg'ona shahar hokimligi hamkorligida «Abdulla Qodiriy» mahalla fuqarolar yig'inida «Mahallada duv-duv gap» ma'naviy-ma'rifiy tadbiri o'tkazildi.

Tadbir davomida markazning viloyat bo'limi rahbari Maqsudjon Sulaymonov hamda shahar hokimining o'rinbosari Yusufjon Yusupovlar so'zga chiqishib, mahalla ma'naviyat va ezgu qadriyatlar maskani ekanligini alohida ta'kidlashdi.

Mazkur mahallada turli millat vakillari tinch-totuv yashab kelmoqda. «Inson qadri uchun» degan ezgu tamoyil tadbirning bosh vazifasini tashkil etdi. Bir qator ijtimoiy aksiyalar va tanlovlar qalblarga shodmonlik ulashdi.

«Inson qadri» mehr-muruvvat aksiyasi doirasida mahalladagi 4 nafar yolg'iz, keksa va nogironlar xolidan xabar olindi. Shuningdek, tadbir doirasida «Mahalladagi ma'rifatli ayol», «Mahalladagi odobli qiz», «Mahalla kelini» hamda mahallada tavallud kunlarini nishonlayotgan otaxon va onaxonlarning tavallud topgan kunlari munosabati bilan «Siz tug'ilgan kun» loyihalari o'tkazildi.

Mahalla aholisi va keng jamoatchilik ishtirokida madaniy-ma'rifiy bayram dasturi namoyish etilib, san'atkorlar tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar barchaga o'zgacha ko'tarinkilik bag'ishladi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-10-17 02:15:10